



O'QUVCHI YOSHLARNI IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK QO'LLAB-QUVVATLASH VA SHAXS SIFATIDA SHAKLLANTIRISH

Eshmirzayev Bozor Saidmurodovich

Qashqadaryo viloyati Qamashi tumani

77-maktab amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Bugungi davrda insoniyat shu qadar ulkan o'zgarishlarni sodir etayabdi, bunda iqtisodiyot, siyosat, sanoat umuman olganda jamiyatning barcha jabhalari turli darajada renessansga yuz tutmoqda.

Shu bilan bir qatorda esa insonlarning yuksak aqli ila ishlab chiqilayotga ixtirolarning ayrim ma'naviy ta'sirlari yoshlarning sezgisi orqali bevosita ongiga ta'sir etmay qolmayabdi. Nafaqat ta'sir etish balki harakatga keltirish darajasiga ham yetdi. Sodda bir misol bilan tushuntirib o'tsam, odamzot tomonidan ixtiro qilingan uyali aloqa vositasi va internet axborot texnologiyaning yangi bosqichga ko'tarilishi deydiga bo'lsak, yoshlarning internetga "sho'ng'ib ketishi"(tik tok, telegramm, instogram, facebook) ma'naviyatiga ta'sir o'tkazmasdan qolmayabdi. Demakki, har qanday jismnini qarama – qarshi tomoni bo'lganidek, har qaysi ijobiylikning ham salbiy tomoni mavjud bo'ladi degan fikrga kelish mumkin. Shu o'rinda O'zbekiston Resublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli deb o'ylayman. "G'oyaga qarshi g'oya, fikrga qarshi fikr, jaholatga qarshi ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin." Shunday ekan biz ta'lim berayotgan farzandlarimiz oqni qoradan ajrata olishlari, har qanday o'zgarishga labbay deb javob qaytarishlari, o'z aqliy salohiyati bilan butun O'zbekiston balki dunyoni lol



qoldirishlari uchun biz ularni ma'naviyatini tarbiyalashimiz lozim. Yoshlarni ijtimoiy – psixologik qo'llab –quvvatlash va kelajakda kim bo'lish bizning zimmamizdagi mas'uliyatimizdir. Agarda ota-ona, fan o'qituvchisi, sinf rahbari bilan birgalikda o'quvchimizning qiziqishi, bilim salohiyatini hisobga olib unga to'g'ri yo'l ko'rsata olar ekanmiz u albatta kelajakga olg'a shaxdam qadamlar bilan qadam bosadi. Shuningdek kasbga yo'naltirish bolaning yoshligidan olib borish lozim. Shaxsda kasbiy o'zlikni anglash shakllanishini kasbiy mahoratning vujudga kelishidagi asosiy mezonlardan biri sifatida ham bir necha bosqichlarni ajratish mumkin.

1. Kasblar olami haqida aniq-ko'rgazmali tasavvurlarni paydo bo'lishi davr. Bu davr 2,5-3 yoshdan boshlanib 10-12 yoshgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Taraqqiyot davomida bolaning ongida kasblar olami haqidagi turli tuman tasavvurlar shakllanib boradi. Boshlang'ich ta'limda esa yetakchi o'quv –biluv faoliyatida o'quvchilarning kasblar haqidagi tasavvurlari yanada kengayib boradi.

2. O'zini kasbiy bilish davri. Ko'plab kasblar haqidagi tasavvurlarni o'zlashtirib olgach, o'quvchi ularni u yoki bu shaklda qo'llay olishi kerak. Kasblar haqida yetarli bilim, ko'nikma va tayyorgarlikga ega bo'lmaganlari sababli ba'zi o'quvchilar o'zlarini biror kasbiy sohada namoyon eta olmaydilar.

3. O'zini kasbiy aniqlash davri. Ushbu bosqichda kasbiy o'zlikni anglash yakunlanadi. Bu davr maktabni tugatgandan keyin ham davom etishi mumkin. O'quvchida kasbni o'rganishning aniq yo'nalishi, barqaror qiziqishlar, kasbning talablarga mos bo'lgan shaxs xususiyatlarining shakllanishi kuzatiladi. Xuddi shu xususiyatlarni inobatga olgan holda Respublika tashxis markazi tomonidan o'quvchi yoshlarni kasb -hunarga yo'naltirish borasida qator tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Kasbim-Kelajagim" platformasi orqali maktablarimizning yuqori sinf o'quvchilari o'zlarining qiziqishlariga ko'ra kasb yo'nalishlarini aniqlash hamda shu kasb yuzasidan ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'lib kelmoqdalar. Shu bilan bir qatorda yana bir e'tibordan chetta



qoldirib bo'lmaydigan masala bor, ya'ni bitiruvchi o'quvchilarning mustaqil kasb tanlashi-jamiyat yoshlarning hayotini o'zi belgilash imkoniyatlarini kengaytiradi. Uning oldida o'zlarining kuchi va qobiliyatlarini faoliyatning turli sohalarida jamiyat manfaati yo'lida foydalanish imkoniyatlari mavjud. Demak, jamiyatda faoliyat turlari juda ko'p shulardan o'zining iqtidoriga munosib kasb tanlay olish har bir o'quvchining o'ziga bo'g'liq. Shu o'rinda dunyo bo'yicha ta'lim sifati yetakchi o'rinlarni egallab kelgan Finlandiya ta'lim tizimining negizi "Har qanday o'quvchi yuqori natijaga erishishi mumkin, har qanday maktab u qayerda joylashganidan qat'iy nazar sifatli ta'lim berishi kerak". Finlandiyaning ta'lim sifatida yuqori darajani egallab kelshining asosiy omili, avvalo, o'quvchi va talabalarni hayot davomida kerak bo'ladigan amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan ta'lim standartlari va o'quv dasturining joriy etilganligi, talablar hamma uchun barobar ekanligi hamma pedagoglar tayyorlashning a'lo darajasidagi tizimi mavjudligida. Bundan tashqari Finlandiya ta'lim tizimida asosiy e'tibor faqat iqtidorli o'quvchilarga emas balki o'zlashtirishi sust o'quvchilarga qaratilishi ham ta'limni berishni yuqori darajaga ko'tarishini isbotlagan. Xorij tajribalariga tayangan holda O'zbekistonda O'quvchi yoshlarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash, buyuk maqsadlari sari olg'a qadam bosish ko'nikmalarini shakllantirish uchun quyidagilarni keltirib o'tmoqchiman. Avvalo o'quvchilarimizda ijtimoiy va psixologik holatni barqarorligini va barcha o'quvchilarda teng bo'lishini maktab amaliyotchi psixologi o'z zimmasiga olishi zarur. Dastlab, ijtimoiy tenglik haqida fikr yuritamiz. Bular: maktablarda joriy etilgan maktab formasi amalda mavjud tenglik. Istisno tarzlar ham mavjud, pedagog xodimlar hamda maktab ma'muriyati xodimlarining maktab formasi ma'lum qolibga solinmaganligi, o'quvchilarning aqliy va jismoniy salomatligini ta'minlash maqsadida maktab oshxonalarining yo'qligi (ayrim chet xududlarda) va mavjud oshxonalarda barcha o'quvchilarga bir xil yeguliklar tarqatilmasligi ham o'quvchilarda ijtimoiy omilining buzulishiga olib keladi va o'z-o'zidan uning psixologiyasiga ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni psixologik qo'llab-quvvatlashga keladigan bo'lsak, maktab amaliyotchi psixologlarni yillik ish rejasiga



olinayotgan metodika hamda so'rovnomalarni yanada otimallashtirish, ko'proq amaliy ishlarni o'tkazish uchun dars soati ajratilishi kerak deb o'ylayman. Biz yashab turgan bugungi axborot texnologiya rivojlangan davrda ko'proq yangilikni targ'ib qilish va xorij tajribalarini mentalitimizga mos ravishda o'quvchilarimizga yetkazib berish maqsadida psixolog xodimlarni AT(Axborot texnologiyalari) ga hamda ingliz va rus tillariga o'qitilishi lozim deb o'ylayman. Bundan maqsad o'quvchilarda o'rtasida sodir bo'layotgan har qanday psixologik o'zgarishni aniqlay bilish va o'z o'rnida rehabilitatsiya qila olish imkoniyatini yanada oshirishdir.. Mening fikrimcha yuqoridagilarni amalga oshirgan holda, psixolog xodimlarini eng asosiy vazifalaridan biri bo'lmish o'quvchilarni kelajakdagi yo'lini tanlay olishi va o'ziga buyuk kelajakni yaratishga yordam berishdek mas'uliyatli vazifani amalga oshirish ham turadi. Amaliyotchi psixolog o'quvchilarni buyuk maqsadlari sari olg'a qadam bosishi uchun nimalar qilishi zarur? Avvalo, o'quvchilarni o'zligini anglash va maqsadlarini to'g'ri tanlashni o'rgatish lozim. Buning uchun eng avvalo o'quvchilarimizda vatanarvarlik tuyg'usini, vatanni sevishni va unga xizmat qilishni uqtirmog'imiz shart. Jmumladan, har kuni davlatimiz madhiyasi jarangi ostida kunn iboshlash va har doim tarbiyaviy darsda muqaddas dinimizdan hadislar yod olishni maktablarimizda reja asosida yo'lga qo'yishimiz lozim. Kelajak kasbini tanlash uchun esa Har bir o'quvchining ota-onasi bilan individual tarzda psixolog huzuriga chaqiriqlar tashkil qilish va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlik asosida ushbu ota-onani ish vaqtdan ruxsat berishini ta'minlash lozim. Shundagina biz ota-ona hamda o'quvchi va maktab orasidagi o'zaro hamkorlikni yo'lga qo'ya olamiz. Davlatimiz rahbarining Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Sharq donishmandlaridan biri aytganidek, "Eng katta boylik-bu aqlzakovot va ilm, eng katta meros-bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlik. "Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak "deya takidlaganlari har bir kishining ayniqsa ta'lim-tarbiya berib kelayotgan o'qituvchilarning mas'uliyatini yana bir karra



oshirdi. Biz yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilar ekanmiz eng avvalo bugungi yosh avlodni imkoniyat, iqtidor va is'tedodini ochib berishi uchun imkon yaratmog'imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyatyengilmas kuch" asari. Toshkent-2008
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2020-yil 28-yanvar